

FINLANDIYA TA'LIM TIZIMINING "SIRI"

Davronboyeva Durdona Toshtemir qizi

Toshkent Ijtimoiy Innovatsia Universiteti 4 kurs talabasi

Gmail: durdonadavronboyeva06@gmail.com

Tel:88 463 12 13

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15770923>

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyat sirlari, uning dunyodagi yetakchi o'rinlarni egallashining sabablari va innovatsion yondashuvlarini tahlil qilinadi. Mamlakatning o'ziga xos ta'lim modeli – o'quvchilarga bosimning kamligi, o'qituvchilarning yuqori malakasi, bepul va teng imkoniyatli ta'lim tamoyillari orqali qanday natijalarga erishgani yoritiladi. Shuningdek, maqolada Finlandiya tajribasidan O'zbekiston ta'lim tizimi uchun qanday foydali jihatlar o'rganilishi mumkinligi muhokama qilinadi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются секреты успеха системы образования Финляндии, причины её ведущих позиций в мире и инновационные подходы. Освещается уникальная модель образования страны, которая достигает высоких результатов благодаря низкому уровню давления на учеников, высокой квалификации учителей, а также принципам бесплатного и равного образования. Также в статье обсуждается, какие полезные аспекты финского опыта могут быть применены в системе образования Узбекистана.

ANNOTATION: This article analyzes the secrets behind the success of Finland's education system, the reasons for its leading position in the world, and its innovative approaches. It highlights the country's unique educational model, which achieves outstanding results through low academic pressure on students, highly qualified teachers, and the principles of free and equal education. Additionally, the article discusses which beneficial aspects of Finland's experience can be adopted in Uzbekistan's education system.

Kalit so'zlar: Finlandiya, ta'lim tizimi, muvaffaqiyat, innovatsiya, o'qitish metodlari, xalqaro tajriba, Janubiy Koreya, tenglik va bepul ta'lim, bosimsiz ta'lim muhiti, yuqori malakali o'qituvchilar, kasbiy erkinlik, uzoq tanaffuslar, qisqa darslar, amaliy o'qitish, ijodiy yondashuv, ta'lim sifatini oshirish.

Hozirgi kunda ta'lim sifati har bir jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Zamonaviy dunyoda eng muvaffaqiyatli ta'lim tizimlaridan biri sifatida e'tirof etilgan Finlandiya ta'lim modeli ko'plab davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tizim an'anaviy baholash va bosimga asoslangan yondashuvlardan farqli ravishda, o'quvchilarga erkinlik berish, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash orqali yuqori natijalarga erishayotgani barchamizga ma'lum. Xo'sh butun dunyoni hayratga solayotgan Finlandiyaning muvaffaqiyat siri nimalardan iborat? Ushbu tizimning ustun jihatlari qanday? Finlandiya ta'lim tizimiga tubdan nazar tashlaydigan bo'lsak quyidagi jihatlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tenglik va bepul ta'lim - Finlandiyada barcha o'quvchilar uchun ta'lim bepul va teng imkoniyatlar yaratilgan. Bu tamoyil ta'limdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bosimsiz ta'lim muhiti - Maktablarda o'quvchilarga ortiqcha bosim o'tkazilmaydi, sinovlar va reytinglar minimal darajada. Bu o'quvchilarning ruhiy salomatligini saqlashga yordam beradi.

O'quv dasturining moslashuvchanligi - O'quvchilar o'z qiziqishlariga qarab fanlarni tanlash imkoniyatiga ega, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.

Yuqori malakali o'qituvchilar - Finlandiyada o'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lishi shart va ular jamiyatda katta hurmatga sazovor.

Kasbiy erkinlik - O'qituvchilar o'quv jarayonini tashkil etishda mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega, bu esa ta'lim sifatini oshirishga sezilarli darajada hissa qo'shadi.

Qisqa darslar va uzoq tanaffuslar - O'quvchilarning diqqatini jamlash va samaradorlikni oshirish uchun darslar qisqa, tanaffuslar esa uzoqroq qilib belgilangan.

Amaliy o'qitish va ijodiy yondashuv - Ta'lim jarayonida nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar bilan boyitiladi, bu esa o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Ushbu holatlar ahamiyatsiz ko'ringani bilan talim samaradorligini oshirishga sezilarli darajada hissa qo'shadi. Buni Finlandiya misolida ko'rishimiz mumkin.¹

Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni, jumladan, Finlandiya ta'lim modelining ilg'or jihatlarini o'zlashtirishga e'tibor kuchaymoqda. Xususan, ta'lim jarayonida o'quvchilarning erkin fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirish, baholash tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish, o'qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, maktabgacha va umumiy o'rta ta'limda innovatsion metodlarni joriy etish orqali sifatni oshirishga intilish kuzatilmoqda. Ushbu o'zgarishlar O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Endi bizda yana bitta savol tug'iladi, nega aynan Finlandiya ta'lim tizimi?

Bu savolga dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri Janubiy Koreya davlati misolida ko'rishimiz mumkin. Janubiy Koreyada natijalarga erishish uchun o'quvchilar juda ko'p o'qiydi, lekin bu ularda stress va bosim kabi mu'ammolarni keltirib chiqaradi. Ularning bilimlari mustahkam bo'lsada, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari kamroq rivojlangan. Finlandiya esa o'quvchilarning tabiiy qiziqishlarini rivojlantirgan holda ularning individual o'sishiga e'tibor qaratadi. Bu tizim kam bosimli, lekin shunga qaramay samarali bo'lib, o'quvchilarning ijodkorligi va erkin fikrlashiga katta ahamiyat beradi.

Finlandiya tajribasini O'zbekistonda qo'llashdan asosiy maqsad O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi tamoyillardan iborat:

1. Ta'lim sifatini oshirish:

Finlandiya ta'lim modeli o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va tanqidiy yondashuvini rivojlantirishga asoslangan. O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish uchun nazariy bilim bilan bir qatorda, amaliy va innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish shart va zarur.²

2. O'quvchilarga ortiqcha bosim yuklamaslik

Finlandiyada o'quvchilar uchun imtihon va baholash tizimi onson va ularga qiyinlik tug'dirmaydi stress darajasi esa juda past. O'zbekistonda ham o'quvchilarga yuklanadigan ortiqcha qiyinchiliklarni kamaytirib, ularga qiziqarli va samarali o'qish muhiti yaratish muhim hisoblanadi

3. O'qituvchilarning nufuzini oshirish va malakasini kuchaytirish

¹ https://www.koob.ru/walker_timothy_d/finnish_education_system

² <https://lex.uz/docs/-6476175>

Finlandiyada o'qituvchilarga yuqori maosh to'lanadi va ularning jamiyatdagi nufuzi juda baland hisoblanadi, ular o'z ishlariga ijodiy yondashadilar. O'zbekistonda ham o'qituvchilarning malakasini oshirish, ularga erkinlik va innovatsion usullarni qo'llash imkoniyatini berish, yuqori maosh bilan taminlash va shu bilan bir qatorda o'qituvchi nufuzini oshirish ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin kasb etadi

4. Tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish

Finlandiya ta'lim tizimi o'quvchilarga mustaqil fikrlashni hamda muammolarni erkin hal qilishni o'rgatadi. O'zbekistonda ham shaxsiy fikr yuritish va innovatsion yondashuvlarni rag'batlantirish juda muhim.

5. O'qitish usullarini modernizatsiya qilish

Finlandiyada interaktiv ta'lim metodlari, raqamli texnologiyalar va loyiha asosida o'qitish keng qo'llaniladi. O'zbekiston ham zamonaviy texnologiyalar va yangi pedagogik usullarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa : Hozirgi davrda ta'lim sifati mamlakatning kelajagini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribalarni o'rganish jarayonida Finlandiya modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyat sirlari, uning asosiy xususiyatlari va O'zbekiston uchun qanday foydali jihatlari mavjuti tahlil qilindi. Finlandiya ta'lim tizimining eng asosiy jihatlardan biri – sifat va teng imkoniyatlarga asoslangan yondashuvdir. Mamlakatda barcha bolalar ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, bir xil darajadagi sifatli ta'lim olish huquqiga ega. O'quvchilarning ortiqcha bosim ostida o'qimasligi, baholash tizimining stressga sabab bo'lmasligi va ta'lim jarayonining amaliyotga yo'naltirilganligi ta'lim samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeining yuqoriligi, ularga ijodiy erkinlik berilishi ham ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston ham ta'lim tizimida tubdan islohotlarni amalga oshirish jarayonida bo'lib, Finlandiya tajribasidan o'rganish mumkin bo'lgan ko'plab foydali jihatlarni mavjud. Ta'limda stressni kamaytirish, o'quvchilarni faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham qurollantirish, o'qituvchilarning nufuzini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish bu sohada muhim yo'nalishlardan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, har qanday xorijiy modelni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki O'zbekistonning milliy xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashtirish muhimdir. Agar mamlakatimiz ta'lim tizimi o'zining tarixiy qadriyatlarini saqlagan holda ilg'or tajribalarni qo'llay olsa, bu yosh avlodning intellektual va ijodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Natijada, ta'lim tizimining sifatini oshirish orqali xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar yetishtirish va mamlakatimizning jahon sahnasida o'z o'rnini mustahkamlashiga erishish mumkin bo'ladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni"ning yangi tahriri 2020-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha islohotlar

to'g'risida"gi Qarori, 2022.

4. Timoti Uoker" Finlandiya ta'lim mo'jizasi " Global books" Toshkent -2023
5. M.S. Latipova Umumiy o'rta talim maktablari ta'lim sifatini oshirishda xalqaro baholash tadqiqotlaridan foydalanish imkoniyatlari.ilm fan xabarnomasi ilmiy electron jurnal. 4-son , Iyul , 2024. Worldly knowledge nashriyoti 6-bet
6. M.S. Latipova The scientific and practical importance of using foreign experiences in the organization and management of educational processes. [American Journal of Pedagogical and Educational Research](#) Volume 26, | July – 2024 ISSN (E): 2832-9791
7. Xusanov A., "Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar", Tashkent, 2021.